



O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING SHAKLLANISH TARIXIDA FONEMAGA ILMIY MUNOSABAT

Mamatqulov Azizbek Rustamovich

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

Ro'ziqulov Shohruh ilhom o'g'li

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

Egamov Umid

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15387127>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 30th April 2025

Published: 10th May 2025

KEYWORDS

fonema, fonologiya, singormonizm, artikulyatsiya, tovush, paradigm, sintagma.

ABSTRACT

Ushbu maqolada fonema terminining jahon tilshunosligida o'rganilishi hamda unga bo'lgan farqli munosabatlar, shuningdek, o'zbek tilshunosligida fonema tushunchasining shakllanishi va ilmiy adabiyotlarda untga doir qarashlarning tadrijiy taraqqiyoti haqida gap boradi. O'zbek ilmiy tilshunosligi shakllanishi davrida fonema tushunchasining taraqqiyoti va unga bog'liq tadqiqotlarning ahamiyati maqolada ochib berilgan.

Fonologiyaning tilshunoslik ilmida paydo bo'lishi nafaqat tilshunoslik fanida, balki butun ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishida katta burilish yasadi. Mashhur fransuz olimi K.Levi-Strosning yozishicha: "Fonologiya ijtimoiy fanlarga nisbatan qanchalik yangilovchilik xizmatini bajargan bo'lsa, xususan, yadro fizikasi ham barcha aniq fanlarga nisbatan shunchalik xizmat qilgan".¹ Bu fikrlardan shuni tushunishimiz mumkinki, fonologiya faqat tilshunoslikda emas, boshqa ijtimoiy fanlarda, xususan, mantiq, falsafa, tarix, antropologiya va boshqalarda fanlarda ham qo'llanib kelayotgani anglashiladi.

Dunyo tilshunosligida "fonema" atamasi va bu tushunchaga aloqador dastlabki ilmiy mulohazalarga asos solgan olim I.A.Boduen de Kurtenedir. Tilshunoslikda mavjud bo'lgan fonologiyaga oid nazariyalarning bahsli masalalarida Boduen de Kurtenening fikrlariga suyanmasdan iloj yo'q. Tilshunos olim o'zining "Об отношении русского письма к русскому языку" kitobida nutqiy faoliyatning ikki turi – talaffuz va eshituvga hamda yozish va ko'rishga asoslangan turlari borligini aytadi, ammo bu ikki shaklni u bir-biriga teng deb hisoblamaydi. Olimning fikricha, nutqning talaffuzga va eshitishga asoslangan shakli yozma shaklga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil ravishda yuzaga kelishi mumkin, yozishga va ko'rishga asoslangan nutq shakli esa faqat talaffuzga va eshitishga asoslangan nutqqa bog'liq ravishda anglashiladi.² Boduen de Kurtene va undan keyingi olimlarning fikrlari ham bu tushunchani ilmiy tilshunoslikdagi o'rnini yanada oydinlashtirdi. Keyinroq bu birlik I.A.Boduen de Kurtene va uning shogirdi N.Krushevskiy tomonidan "fonema" deb nomlanadi. Shundan boshlab fanda harf bilan tovushnigina emas, balki tovush (fon) bilan fonemani ham qat'iy farqlash zarurati paydo bo'ladi. I.A.Boduen de Kurtene 1881-yilda nashr etilgan "Slavyan tillari qiyosiy

¹ Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 4.

² Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. – М.: Наука, 1963. – С. 219.

grammatikasining ayrim bo'limlari" nomli asarida "Fonema so'zning o'zaro qiyoslanayotgan qismlari orasida o'zining bo'linmasligi bilan xarakterlanadi", – deydi.³ L.V.Shcherba fizik fonologiya nazariyasini ko'proq rus va fransuz tillari misolida yoritdi. L.V.Shcherba fonemani ajratish uchun tovushning artikulyatsion-akustik xususiyati emas, balki ma'no farqlash xususiyati muhim ekanligini ta'kidlaydi. Akustik-artikulyatsion jihatdan turlicha tovushlar bir umumiy belgisi bilan boshqa shunday tovush tiplaridan ajralib turadi. Ana shunday umumiy belgi ma'no farqlash xususiyati sanaladi.⁴ Boduen de Kurtenening mashhur shogirdi D.Polivanov alohida fonologiya nazariyasini yaratmagan bo'lsa ham, ustozining fonemaga psixologik va morfologik qarashlarini ko'proq funksional jihatdan asoslashga urindi va turkiy hamda boshqa ko'pgina tillar misolida ko'rsatib berdi.⁵ Aynan D.Polivanov turkiy tillarning fonologiyasini obyekt sifatida o'rgandi va fonemaning integratsiya, korrelyatsiya, oppozitsiya kabi xususiyatlarini turkiy tillarga tadbiq eta oldi. Fonologiya borasida Yevropa tilshunosligida olimlar tomonidan til maktablari tomonidan bahsli va tortushuvli fikrlar aytiladi. Fonologiya zamonaviy ma'nodagi mustaqil tilshunoslik fani sifatida XX asrning 20-30-yillarida to'la ma'noda shakllandi; uning asoschilari N.S.Trubetskoy, S.O.Karsevskiy; rus, amerika tilshunosi R.S.Yakobsonlar bo'lib, ular 1928-yil Gaagada bo'lib o'tgan Tilshunoslarning 1-xalqaro kongressida fonemaning asosiy g'oyalarini bayon etganlar. N.S.Trubetskoyning "Fonologiya asoslari" (1939) kitobi fonemaning keyingi taraqqiyotidagi eng muhim bosqich bo'lgan. Fonemaning paydo bo'lishi va uning ilk asoslari XIX asr oxirlarida nemis olimi I.Vinteler va ingliz olimi G.Suit asarlarida, umumnazariy jihatlari keyinchalik F.de Sossyur tadqiqotlarida shakllangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, fonemaning rivojlanish asoslarini tilshunoslikka to'la tadbiq etgan olim I.A.Boduen de Kurtene hisoblanadi. Fonemaning g'oyasi va uning prinsiplari ilk marta uning asarlarida ishlab chiqilgan. Boduen de Kurtene tadqiqotlari negizida Leningrad va Moskva fonologik maktablari shakllandi. Hozirgi kunda mazkur maktablarning fonologik nazariyalaridan tashqari Yevropa va AQShda yana 10 ga yaqin fonologik nazariyalar yaratilgan.⁶

O'zbek tilshunosligida fonemaga oid izlanishlar XX asrning yarmida ilmiy tomondan o'rganila boshlandi. O'zbek tili fonologiyasini o'rganishda qator olimlarning o'rni beqiyos. Ye.D.Polivanov, V.V.Reshetov, A.Nurmonov, A.Abduazizov va boshqalarlarning ilmiy ishlari juda ham ahamiyatlidir.⁷ Shuningdek, fonema borasida o'zbek tili fonologiyasining shakllanishida G.Yunusov, A.G'ulom, A.M.Shcherbak, F.Abdullayev, Sh.Shoabdurahmonov, A.Mahmudov, S.Otamirzayeva, E.Umarov kabi tilshunoslarning xizmati katta bo'ldi. Ammo "fonema" atama sifatida XX asrda o'rganila boshlangan bo'lsa ham, bu tushunchaga doir aytilayotgan fikr va tushunchalar o'zbek tilining tarixidan shakllangan hamda rivojlangan. Umuman olganda, fonemaning fan sifatida shakllanishidan so'ng o'rganilgan davr va fonemaning alohida o'rganilmagan davrga bo'lish mumkin. Xususan, buyuk tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning fonema haqidagi ilmiy qarashlari nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki butun turkiy tilshunoslik ilmida qimmatli hisoblanadi. U, eng avvalo, hozirgi tilshunoslikda fonema termini bilan ataluvchi fonologik birlikni, tovush tipini juda yaxshi farqlagan. Shu sabab ham tilshunos eng kichik fonetik birlikning fonologik funksiyasiga – so'z tarkibida kelib, ma'no farqlash xususiyatiga diqqat qaratadi. Tovush tiplarini belgilashda tovushlarning ma'no farqlash vazifasini asosiy mezon qilib oladi. Ana shu mezon asosida turkiy tillarning fonemalari miqdorini aniqlaydi. Bilamizki, o'zbek tilida hozir fonemaning

³ Журавлев В.К. Динахроническая фонология. – М.: Наука. 1986. – С. 7.

⁴ Щерба Л.В. Русские гласные в качественном и количественном отношении. – СПб.: Наука, 1912. – С.14.

⁵ Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 5.

⁶ Зиндер Л. Р. Общая фонетика. – Ленинград: Наука, 1960.; Поливанов Е.Д. Стати по общему языкознанию. – М.: Наука, 1968.

⁷ Baskakov N. A., Sodiqov A. S, Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 1979.; Nurmonov A. N.O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: Fan, 1990.

cho'ziqligi, yumshoq yoki qattiqligi ma'no farqlamaydi, shuning uchun fonemaning bu tarafiga ahamiyat berilmaydi, ammo shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek tili turkiy tillar tarmog'iga kiruvchi til ekan, uning tarixida fonemalarning farqlovchi belgilari *qalin* va *ingichkaligiga* ko'ra ham sodir bo'lgan. Olim fonemalarning yozuvda ifodalanish darajasi, fonema bilan harf munosabati, ularning o'rtasida doimo mutanosiblik bo'lavermasligi haqida fikr yuritadi. Jumladan, unlini ifodalash uchun qo'llaniladigan harflar birikmasi "*qalin-ingichkalik*" belgisi bilan farq qiluvchi va so'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan bir necha fonemani ifodalashini ko'rsatadi. Masalan, "*o't*" so'zida unli qalinroq talaffuz qilinib, "*devorda va taxtada bo'lgan teshik*" ma'nosini; yana boshqa so'zda yanada ingichkaroq "*ot*" talaffuz etilib, "*achchiqlik*", "*o't qopchasi*" ma'nosini ifodalashi ularning har qaysi alohida-alohida leksema ekanligini, leksemalarni farqlash uchun esa fonema xizmat etayotganini ta'kidlaydi.⁸ O'zbek tilshunosligida fonemani o'rganish keyingi davrlarda ham ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.⁹ Xususan, jadidlar davrining ko'zga ko'ringan vakillaridan o'zbek ilmiy tilshunosligida muhim o'ringa ega bo'lgan olim Abdurauf Fitratning qarashlarida ham o'zbek tilshunosligida "fonema" tushunchasiga oid ilmiy fikrlarni uchratishimiz mumkin. Olimning bu boradagi qarashlari "*Sarf*" asarida o'rin olgan bo'lib, Fitrat fonema va uning variantlari o'rtasidagi munosabatni yaxshi anglaydi va buni ilmiy asarida berib o'tgan.¹⁰ Olim fonemalar real holatda talaffuz qilinganda yondosh tovushlar ta'sirida turli o'zgarishlarga uchrashi mumkinligini, ammo ularning barchasi bir umumiy fonemaning turlari ekanligini keltirib o'tadi. Avvalo, o'zbek tili fonemalarini akustik-artikulyatsion xususiyatiga ko'ra ikki katta guruhga bo'ladi: unlilar va unsizlar. Bu o'zaro zidlangan atamalar fonemalarning akustik belgisiga ko'ra tasniflanishini juda to'g'ri aks ettiradi. Sof undan iborat bo'lgan fonemalar unlilar, ovozga ega bo'lmaganlar esa unsizlardir deya ta'rif beradi.¹¹ Shu bilan birga olim o'zbek tilidagi undoshlarning miqdorini va unlilarning miqdori haqida ham to'xtalib o'tadi. Olim fonetik hodisalarning yuzaga kelishi xalqning talaffuzda ixchamlikka erishish harakatidan sodir bo'lishini ta'kidlaydi. Bu masala yuzasidan shu davrning olimlaridan Polivanov ham aynan Fitrat bildirgan fikrlarni takrorlaydi.¹² Fonema borasidagi izlanishlar o'zbek tilshunosligida keyingi davrlarda ham chuqur tadqiq qilindi. O'zbek tilshunosligiga sistem tomondan yondoshuvlar fonologiya va uning o'rganish obyekti bo'lgan fonema masalasi yanada chuqurroq tadqiq qilinishiga yo'l ochdi. Xususan, A.N.Nurmonovning 1990-yilda nashr etilgan "O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi" asari fonologiya borasidagi ishlarining yorqin na'munasi bo'ldi. A.A.Abduazizov esa o'zbek tili fonemalarini paradigmatic va sintagmatic aspektida alohida o'rganib, o'zbek tili fonologiyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. U o'zbek tilshunosligida ilk marta nutqning har bir fonetik bo'linishida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo'lishini izohlab berdi, ularni izohlovchi maxsus atamalar tizimini o'zbek tilshunosligiga Yevropa tilshunosligidan olib kirdi. 1992-yilda A.Abduzuhurovning "O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi" kitobi fonologiya uning o'rganish obyekti va dunyo tilshunosligida fonemaga oid nazariyalar haqidagi ilmiy asar bo'ldi. Bundan tashqari fonema va uning o'zbek tilshunosligidagi talqini borasidagi dissertatsiyalar ham yaratildi. Xususan, "O'zbek tilida lisoniy birliklarning invariant-variant munosabati(fonologik sath)"¹³ nomzodlik dissertatsiyasi (Nabiyeva Diloru Abduhamidovna, 1998), "O'zbek tilida paradigma a'zolari o'rtasidagi zidlanishlarning mo'tadillashuvi

⁸ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 32.

⁹ Кўчқортюев И., Исабеков Б. Туркий филологияга кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 110., Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Тошкент: Sharq, 2010. – Б.214 .

¹⁰ Fitrat. Sarf. – Samarqand-Toshkent: O'zdavnashr, 1930. – Б. 59.

¹¹ O'sha manba. – Б. 32.

¹² Поливанов Е. П. Где лежат причины языковой эволюции? – Статьи объему языкознанию. – М.: Наука, 1968. – С. 75.

¹³ Nabiyeva D. O'zbek tilida lisoniy birliklarning invariant-variant munosabati: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1998.

(fonologik sath)"¹⁴ nomzodlik dissertatsiyasi (Nurmonova Dilfuza Abduhamidovna, 1998-yil) kabi ilmiy ishlar fikrimizning dalilidir. A.A.Abduazizov esa o'zbek tili fonemalarini paradigmatic va syntagmatic aspektda alohida o'rganib, o'zbek tili fonologiyasining taraqqiyoti va rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. U o'zbek tilshunosligida ilk marta nutqning har bir fonetik bo'linishida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo'lishini izohlab berdi, ularni izohlovchi maxsus atamalar tizimini o'zbek tilshunosligiga Yevropa tilshunosligidan olib kirdi.¹⁵ A.Abduazizov nutqni fonetik jihatdan o'zigacha mavjud bo'lgan barcha mualliflar kabi ibora (faza), takt, bo'g'in va tovushlarga bo'ladi. Olim fikrining boshqalardan farqi shundaki, bu birliklarni u paradigmatic qatorda bir-biriga qarama-qarshi qo'yish mumkin bo'lgan birliklarga zidlaydi: tovush - fonema, takt - taktema, bo'g'in sillabema va boshqalar. Shu bilan birga, u segment birliklar bilan ustsegment birliklarni ajratgan holda, urg'u, intonatsiyalarni ustsegment birliklarga kiritadi.¹⁶ O'zbek tilshunosligida unli fonemalar borasida taniqli olim V.V.Reshetovning ilmiy fikrlari ahamiyatga ega. Uning fikricha, indifferent unlilarning ajralish ajralmasligi tadqiqot obyektiga bog'liq. V.V.Reshetov Toshkent shevasi talaffuziga asoslanib, o'zbek tilidagi *i, u, o', a* unlilarini oraliq unlilar deb ataydi. U o'zbek tili unlilarining bu fonetik tasnifi rus tili unlilari bilan qiyoslash asosida berilishini ta'kidlaydi.¹⁷ Bizningcha, Reshetov bu ilmiy fikrlarda diaxronik faktlarga asoslangan. Olim o'zbek tilidagi unli fonemalarning, xususan, Toshkent dialektlarida zidlanish hodisasi yo'qolganini ta'kidlaydi.¹²¹⁸ O'zbek tili tarixida unli fonemalarning yo'g'on va ingichkaga ajralishi va singarmonizm qoidalariga asoslangan buday fikrlar professor F.Abdullayevda ham uchraydi.¹⁹ XX asr boshlarida, turkiy yodgorliklarni nashr qilmoqchi bo'lgan olimlar oldida unli tovushlarni qanday aks ettirish kerak, degan muammo paydo bo'ladi. V.V.Radlov boshchiligidagi bir guruh olimlar turkiy tillarga qattqlik-yumshoqlik xos, shuning uchun bu tillardagi unlilarni til oldi, til orqa tovushlariga ajratib ko'rsatish kerak, degan fikrni yoqlab chiqdilar va o'z ishlarida ana shu qoidaga amal qildilar. Keyinchalik bu kabi mulohazalarga Ergash Umarov o'zbek tilida hozirgi kunda singarmonizmni tashkil etuvchi qattqlik-yumshoqlik belgilari umumiste'moldan butkul uzulganini va ularning bu xususiyatiga ko'ra ma'no farqlashi mumkinligini rad etadi.²⁰

Ko'pchilik tilshunoslar Ye.D.Polivanov tomonidan ko'rsatilgan oltita fonema borligini tan oladilar.²¹ Faqat professor M.Mirtojiyev o'zbek adabiy tilidagi unlilarning oltitadan ko'p ekanligini ko'rsatadi.²²

Foydalanilgan adabiyotlar

- ¹⁴ Nurmonova D. O'zbek tilida paradigma a'zolari o'rtasidagi zidlanishlarning mo'tadillashuvi: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1998.
- ¹⁵ Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 214.
- ¹⁶ Abduazizov A.A. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 11.
- ¹⁷ O'sha manba. – B. 36.
- ¹⁸ Решетов В.В. Узбекский язык. I Фонетика. – Ташкент: Учпедгиз, 1959. – С. 357.
- ¹⁹ Абдуллаев Ф.А. Фонетика хорезмских говоров. – Ташкент: Фан, 1967. – С. 41.
- ²⁰ Умаров Э. Ўзбек тилида тил олди товушлари борми?//Ўзбек тили ва адабиёти, – № 4,5,6. 1994. – Б. 77-78.
- ²¹ Abduazizov A.A. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 50-51.; Решетов В.В. Узбекский язык. I. Фонетика. – Ташкент: Учпедгиз, 1959. – С. 357.
- ²² Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 20.

1. Fazliddin, S., Alisher, A., Azizbek, M., & Shoxistaxon, X. (2024). AZIM HOJIYEVNING LEKSIKOGRAFIKAGA OID MEROSI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 30-33.
2. Mamatqulov, A. (2022). YORMAT TOJIYEV NAZDIDA SINONIM AFFIKSLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 39-41.
3. Sharipov, F. G., & Mamatqulov, A. R. (2021). O'ZBEK ILMIY TILSHUNOSLIGI HOLATI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 168-174.
4. Ermatov, I., Eshboyeva, F., & Mamatqulov, A. (2025). TO'RA SULAYMONNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 101-105.
5. Fazilat, E., Azizbek, M., & Ermatov, I. (2025). PRAGMATIKANING TILSHUNOSLIKNING BIR TARMOG'I SIFATIDAGI TA'RIFI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 192-195.
6. Mamatqulov, A. (2024). AZIM HOJIYEV LUG 'ATSHUNOS OLIM. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 525-259.
7. Shoxistaxon, X., Sayyora, Y., & Mamatqulov, A. (2024). QO 'SHMA SO 'ZLARNING VUJUDGA KELISHI HAQIDA. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 60-65.
8. Azizbek, M. HOZIRGI O 'ZBEK ADABIY TILINING TARIXIY TARAQQIYOTIDA LEKSEMALARINING MORFEMAGA O 'TISHI XUSUSIDAGI FARAZLAR. *PERSPECTIVES OF PHILOLOGY AND PRACTICAL POSSIBILITIES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES*, 204.
9. Qushoqovich, A. O. K. (2022). Importance of using terms in English and uzbek.
10. Muratkulov, A. (2024). O 'ZBEK TILIDA ARABCHA KO 'PLIK SHAKLLARINING QO 'LLANILISHI. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 5(56), 174-176.
11. Tursunkulovich, M. A., Fazilat, E., & O'G, R. Z. S. I. (2024). O 'ZBEK TILIDA ARABCHA KO 'PLIK SHAKLLARINING QO 'LLANILISHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 66-69.
12. Pardayeva, I., & Ro'ziqulov, S. (2025). ZARGARLIK TERMINLARINING TEMATIK TASNIFI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 94-96.
13. Doniyorovich, O. R. A., Xolbo'Tayevna, P. I., & O'G, R. Z. S. I. (2025). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSEMANING TIL BIRLIGI SIFATIDA O 'RGANLISHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 205-208.
14. Ro'Ziqulov, S., Pardayeva, I., & Alisher, O. R. (2025). FE'LDA VALENTLIK. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 209-211.
15. Shohruh ilhom o'g, R. Z. (2024, May). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO 'Z TURKUMLARINING O 'RGANILISHI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS* (Vol. 1, No. 5, pp. 36-46).
16. Туйчиева, З. Х. (2022). ПРОЯВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ МОТИВОВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(4), 244-248.
17. Tuychieva, Z. (2019). PRINCIPLES OF DIFFERENTIATING OF GENDERS IN UZBEK ANTHROPOLOGY. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(1), 75-82.

18. Khamrokulovna, T. Z. (2018). Literature revealing the truth of life. *Проблемы педагогики*, (7 (39)), 77-78.
19. Egamov, U. (2024). LEXICAL REPETITIONS IN THE POETRY OF USMON AZIM. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(10), 34-43.
20. Khamrokulovna, T. Z. (2021). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul,-qul-COMPONENT NAMES). In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 1, pp. 48-50).
21. *NOLOGIES* (Vol. 1, pp. 48-50).

